

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TERGOVCHILARINING HUQUQIY ONGI TUSHUNCHASI, TUZILISHI VA FUNKSIYALARI.

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish
instituti Yuridik fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, kapitan*

Xamrayev Jasur Qudrat O‘G‘Li

Annotatsiya: Maqolada muallif tomonidan ichki ishlar organlari tergovchilarining huquqiy ongining tushunchasi, tuzilishi va funksiyalari gnosologigik usulda tadqiq etish natijalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ichki ishlar organlari, huquqiy ong, huquqiy ongning funksiyalari, surishtiruvchi, tergovchi.

Аннотация: В статье освещены результаты исследования понятия, структуры и функций правового сознания следователей органов внутренних дел гносеологическим методом.

Ключевые слова: Органы внутренних дел, правосознание, функции правосознания, следовател, следовател.

Annotation: In the article, the results of the research of the concept, structure and functions of the legal mind of the investigators of the internal affairs bodies by the epistemological method are highlighted.

Key words: Internal affairs bodies, legal consciousness, functions of legal consciousness, investigator, investigator.

Ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar qatorida o‘zining alohida o‘ringa ega. Tizimning ish faoliyati bo‘yicha zimmasiga O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 16-sentyabrdagi 407-sonli qonuniga asosan belgilangan vazialarining orasida sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha daslabki tergov faoliyatini amalga oshirish belgilangan. Ushbu faoliyatni amalga oshirish Ichki ishlar organlarning tergovchi va surishtuvchilari zimamasiga yuklatilgan. Shu munosabat bilan tergov faoliyatining amalga oshishida ta’sir ko‘rsatadigan shaxslarning kasbiy-huquqiy ongga alohida e’tibor qaratish lozim. Vaholanki surishtiruvchi va tergovchining etuk professsonal xodim sifatida shakillanishi, tergov

faoliyati bilan shug'ullanishi uchun huquqiy ong katta ta'sir o'tkazadi.

Huquqiy ong haqida ilmiy izlanishlar olib boshirish, buning pirovardida ma'lum ilmiy ba'zaning yaratilishi tergov tizimi xodimlarining, shuningdek, huquqni muhofaza qilish sohasidagi boshqa toifadagi amaliyotchilarning huquqiy ongi kabi muammolarni o'rganishga va muammolarni bartaraf etish xizmat qildi. Ushbu falsafiy kategoriya yuzasidan bir qancha ta'riflar mavjud. Xususan; Abu Nasir Farobiyning firicha, huquqni bajarishning shartligi va majburiyligi komil insonlar ongining bir qismi bo'lishi kerak¹. Huquqiy ong X.T.Odilqorievning fikricha huquqiy ong – insonlarning mavjud huquqiy tizim, qonunchilik va boshqa huquqiy xodisalarga nisbatan munosabatni ifodalovchi tasavurlar, bilimlar, axborotlar va his-tuyg'ular yig'indisidir². Huquq va huquqiy ong haqida evropalik mashhur olimlar I.Kant, G.Gegel, Sh.Monteske, J.J.Russolar ham bir qancha fikirlar bildirib o'tgan.

Huquqiy ong murakkab tarkibiy shakllanishdan iborat. Falsafiy adabiyotlarda huquqiy ongning tarkibiy tuzilishi deganda “integral tizimning ichki tashkiloti tushuniladi, bu uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi va o'zaro ta'sirining o'ziga xos usulidir”³.

Fikrimizcha huquqiy ong dunyoqarashning bir qismi bo'lib, ob'ektiv voqelikni aks ettirish, bizni o'rab turgan borliqdagi ijtimoiy munosabatlarning tartibga soluvchi qonuniyatlarni inson ongidagi innikosidir.

Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilarining huquqiy ongi jamiyatning boshqa a'zolari huquqiy ongidan biroz farq qiladi. Tergov murakkab va serqirra faoliyat bo'lib, yuksak professional huquqiy ongga ega bo'lgan insonlargina biror natijaga ega bo'ladilar. Surishtiruvchi va tergovchilarning kasbiy huquqiy ongini tahlil qilishning umumiy uslubiy asosini tergov faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan funkional vazifalari tashkil etadi. Bu vazifalardan asosiylari sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida, har tomonlama, to'la va xolisona tergov qilish, aybdorlarni fosh etish,

¹ A.N.Farobiy – Fozil odamlar shahri // O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti// Toshkent 2004.

² X.T.Odilqoriev // Davlat va huquq nazariyasi // darslik: Adolat-2021 yil 269-bet

³ Kozhevnikov I.N. Jinoyatlarni tergov qilish. M 1997. 4-bet

shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish, davlat va jamoat tartibini saqlash, sodir etilgan jinoiy qilmishlar uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Ushbu shaxslarning huquqiy ongini aniq huquqiy hodisa sifatida o'rganish zaruratining asosiy jihatlari quydagilar,

birinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarning huquqiy ongi dastlabki tergov davomida nisbatan mustaqil shaxs sifatida namoyon bo'lishida. Bunda dastlabki tergov xarakterlarini amalga oshirishda mansabdor shaxsning qonunchilik xujjatlari bilan tartibga solinmagan sabalarga ko'ra qarorlarni qabul qilishi;

ikkinchidan, surishtiruvchi va tergovchilarning huquqiy ongi dastlabki tergov xarakterlarining amaldagi qonunchilik xujjatlariga asosan amalga oshirishida. Bunda protsessual mustaqil shaxs maqomida bo'lishi bilan bir qatorda faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy xujjatlarning normalaridan chiqishi mumkinmasligida bilan belgilanadi.

Ushbu masalani o'rgangan V. M. Stolovskiyning "Ichki ishlar organlari tergov xodimlarining kasbiy huquqiy ongi - bu huquqiy ongning ixtisoslashgan shakli bo'lib, uning mazmuni asosan kasbiy faoliyat jarayonida jinoyatlarni tergov qilishda shakllanadigan huquqiy qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, shuningdek, huquqiy tuyg'ular, munosabat va qadriyat yo'nalishlarini tashkil etadi va huquq normalari bilan bir qatorda uning sub'ekti sifatida xatti-harakatlarini tartibga soladigan davlatning huquqni muhofaza qilish funktsiyasi"⁴ deb takidlagan.

Tergov faoliyatini o'rganish tergovchi va surishtiruvchilarning huquqiy ongida aks ettirilgan asosiy tarkibiy qismlardan biri sifatida dastlabki tergovning ayrim xususiyatlarini ko'rishga imkon beradi, bizning fikrimizcha, ular quyidagilardir:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksiga asosan surishtiruvchi va tergovchi protsessual mustaqil shaxsliki ko'rsatilgan ammo amaliy faoliyat davomida ba'zi qarorlarni qabul qilish yoki protsessual xarakterlarni amalga oshirishda qiyinchiliklarning mavjudligi;

⁴ Stolovskiy V. M. - Ichki ishlar organlari tergovchilarining professional huquqiy ongi. M., 1978. 31-32 bet.

ikkinchidan, dastlabki tergov jarayoni va faoliyat to‘liq huquqiy tartibga solish mexonizimidagi kamchiliklarning mavjudligida;

uchinchidan, faoliyatni amalga oshirishda ba’zi juziy qiyinchiliklarning paydo bo‘lishida;

to‘rtinchidan, ish yuklamasining mehnat samaradorlizichligi bilan mos kelmasligi (ish yuki).

Shu bilan birga, ba’zi mualliflar tergov faoliyatining xususiyatlari qatorida tergovchi ishining ijodiy xususiyatini va tergov jarayonida hal qilingan psixologik muammolarning xilma-xilligini ham ta’kidlaydilar⁵.

Tergovchilarning huquqiy ongi aks ettiruvchi asosiy ob’ektlardan biri sifatida protsessual mustaqillik haqida gapirganda, bu dastlabki tergov qonuniyligining muhim kafolati ekanligini ta’kidlash lozim.

Afsuski, bugungi kunda Ichki ishlar organlkari surishtiruvchi va tergovchi tomonidan ko‘rib chiqilayotgan jinoyat ishlari salmog‘ining ko‘pligi, bizningcha, ularning faoliyatidagi ijodiy faollikni susaytirib, protsessual xarakterlar o‘tkazish va protsessual xujjatlarni tuzishda jismoniy, psixologik va ijodiy fikirlashga to‘siq bo‘lib, turli xil muammoli vaziyatlarga baho berish qobilyatini cheklaydi va O‘zbekiston Respublikasi JPKning “jinoyatlarni tez va to‘la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini ta’minlashdan iborat”⁶ vazifasini bajarishga salbiy ta’sir ko‘rsatib, kasbiy huquqiy ongdagi muammolardan biridir.

Surishtiruvchi va tergovchilar tomonidan dastlabki tergov yoki surishtiruv ishlari amalga oshirilib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida taqiqlangan jinoiy qilmishni sodir etganlikda ayb e’lon qilinib, tergovchi tomonidan ayblov xulosasi yoki surishtiruvchi tomonidan ayblov dalolatnomasi tuzish uchun eng kam va etarli dallar mavjud bo‘lgan jinoyat ishlari, davlat nomida ayblov va himoyani o‘z ichiga olgan mustaqil jinoyat ishlari bo‘yicha sudda ochiq ko‘rib chiqiladi. Bu qoida tergov va sud

⁵Shaxrimanyan I.K.- Tergovchi faoliyati psixologiyasi: M., 1976-yil.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessal kodeksi. Adolat, Toshkent 2023-y. 4-b.

faoliyatidaga *tergovchining mustaqilligi* va *sudyalarning mustaqilligi* tamoyillariga rioya qilish zarurligini belgilaydi.

Jinoyatni fosh etish, protsessual majburlov choralarini qo'llash va ishda aybdorlik to'g'risidagi masalalarni hal qilishda tergovchi, xuddi sudya singari, ishonchli protsessual xarakter natijasida aniqlangan holatlarni bevosita o'rganishga, dalillarni ichki ishonchga ko'ra baholashga majburdir.

Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilar ma'lum bir ijtimoiy guruhni ifodalovchi, ijtimoiy yo'naltirilgan va malum bir umumiy maqsad mushtarakligi asosida birlashgan jamoada ishlaydi. Umuman olganda, Ichki ishlar organlaridagi tergov faoliyati fikrimcha, quyidagi asosiy 7 ta xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Ichki ishlar vazirligi Tergov departamentining ichki tarkibiy tuzilmalarining mavjudligi (ayrim institutlar, nazorat shakllari, faoliyat shakllari).
2. Surishtiruvchi va tergovchilarning maqsadlari va harakatlarining umumiyligi.
3. Ichki ishlar organlari Tergov faoliyati xodimlari II O'lari boshqa xizmat hodimlariga nisbatan ko'proq o'zining huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha huquqiy ongning rivojlantirish zarurati mavjudligi.
4. Jamoadan muntazam ta'lim berish va iliy izlanish olib borish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatining mavjudligi.
5. Jinoyat ishlari va tashkiliy ishlarni Tergov bo'lim (bo'linmasi)dagi individual shaxsiy fazilatlarga qarab taqsimlanganligi.
6. Jamoadagi ish samaradorligi ma'lum bir ichki (psixologik) muxit(o'zaro tushunish, ijtimoiy adolat)ga bog'liqligi.
7. Tergov bo'lim(bo'linmasi)ning vazifalari qonunchilik xujjatlarida qat'iy belgilangan bo'lsada shaxsiy javobgarlik mexanizimi (rahbar)ning mavjudligi.

Dastlabki tergov jarayonida surishtiruvchi va tergovchining huquqiy irodasiga zid ravishda dalillar kiritilishi mumkin emas. Jinoyat ishiga maqbul bo'lgan, ya'ni Jinoyat-protsessual qonun talablariga asosan to'plangan, dallilik qiymatiga ega dastlabki tergov uchun ahamiyatli har qanday ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar va ashyolar surishtiruvchi yoki tergovchining quyidagi faol aqliy faoliyat natijasida dadillik

axamiyati aniqlanadi;

- taqdim etilgan ob'ekt yoki hujjatning dalil qiymatini idrok etish;
- ichki ishonch asosida, ishning barcha holatlarini qonun va huquqiy ongdan kelib chiqqan holda har tomonlama, to'liq va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda baholash.

Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilarining huquqiy ongining tuzilishi va jamiyatning boshqa qatlami ongining shakllari o'rtasidagi farq, asosan, huquqiy mavjudlikni aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari va tergov xodimlarining huquqiy ongining ijtimoiy roli bilan bog'liq. Ushbu masala yuzasida N. N. Voplenko ta'kidlashicha, "Tergov huquqiy ongining g'oyaviy-psixologik tarkibiy qismlari bo'yicha o'ziga xosligi ya'ni, tergovchi oldida turgan rasmiy vazifalarning xususiyatlari, faoliyat shakllari va usullari, idoraviy buyruqlar va ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan jinoyat va jinoyat-protsessual qonun normalarni amalga oshirish, uni boshqa yuridik mutaxassislik vakillarining (sudyalalar, prokurorlar, advokatlar va boshqalar) huquqiy ongidan farqlashga imkon beradi⁷. Hozirgi vaqtda Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchilarining huquqiy ongi tuzilishi bo'yicha tadqiqotlar etarli darajada taqdim etilgan va bir qancha muammolar bo'yicha aniq g'oyalari hali shakllanmagan.

Aslini olganda surishtiruvchi va tergovchilarning kasbiy huquqiy ongi ijtimoiy psixologiyaning bir turi bo'lib, u rasmiy jixatdan tergov faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ya'ni, jinoyatlarni tergov qilish natijasida yuzaga keladigan qarashlar, his-tuyg'ular, tajribalar, intilishlar va g'oyalardan iborat qonunga, qonuniylikka va turli xil huquqiy munosabatlarga bog'liq xolda shakllanadigan, tavsiflovchi vaziyatlarda namoyon bo'ladi. Tergovchilarning bilish faoliyati bilan boshqa kasb kishilariga nisbatan chuqurligi, keng qamrovliligi, tezkorligi, aniq maqsadga qaratilganligi, mantiqiyliigi, maxsusligi bilan farq qiladi⁸. Chunonchi, ularning huquqiy psixologiyasi murakkab ma'naviy shakllanishini, o'ziga xosligini uning tarkibiy elementlar orqali

⁷Voplsiko N. N. - Tergovchining huquqiy ongi va yuridik amaliyot. // Tergovchining kasbiy fazilatlarini shakllantirish. Volgograd, 1985. 21-bet.

⁸B.N.Sirliiev, Sh.A.Sottiev, Sh.T.Ikramov – Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi // darslik: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi -2021-yil 40-bet.

ochib berish mumkin.

birinchidan, iqtisodiy va mansabdorlik faoliyati o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lgan elementlar - manfaatlar, iroda, maqsad, faoliyat motivlari;

ikkinchidan, nisbatan barqaror elementlar – diqqat, xotira, an'ana, urf-odat, nodatiy qarashlar, g'oyalar;

uchinchidan, dinamik elementlar – idrok, hissiyot, tuyg'u, ichki kechinma, kayfiyat;

to'rtinchidan, huquqiy psixologiyaning shakllanishiga ta'sir etuvchi elementlar – tanqid, taqlid va taklif.

Tergovchining huquqiy psixologiyasining eng ta'sirchan qismi huquqiy tuyg'ular bo'lib, ular doimo tergovchining qonunga bo'lgan munosabati, qonuniylik va turli huquqiy vaziyatlar bilan bog'liq. Bu tuyg'ular nafaqat huquqiy ongni, balki butun ongni ham faollashtiradi. Huquqiy tuyg'ularning rivojlanish darajasi va ularning barqarorligi butun huquqiy va axloqiy ongning rivojlanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu sababli Ichki ishlar organlari surishtiruvchi va tergovchining huquqiy psixologiyasining muhim jihati huquqiy hissiyotdir. Huquqiy his-tuyg'ular tergovchini qonuniy faoliyat bilan shug'ullanishga, qonun hujjatlariga rioya qilish va hurmat qilishga yoki ularni buzishga undashi mumkin va butun xulq-atvorida sezilarli iz qoldiradilar. Huquqiy his-tuyg'ular huquqiy tuyg'ulardan kengroq tarqalganligi, sezilarli darajada barqaror bo'lishi mumkinligi, ammo kam ifodalanganligi bilan farq qiladi. Huquqiy psixologiyaning muhim elementlari huquqiy tushunchalarda namoyon bo'lib, Ichki ishlar vazirligining butun tizimiga, tergov bo'lim(bo'linma)lariga, ushbu bo'linmalarning alohida xodimlariga huquqiy sohadagi mafkuraviy pozitsiyalarini belgilab, muayyan yo'nalish beradi. Xususan, tadqiqon ob'kti xisoblangan surishtiruvchi va tergovchilarning huquqiy g'oyalari deganda avvalo, amaldagi qonunlar bilan bog'liq ko'p qirrali huquqiy ma'lumotlar, huquqiy o'tmish va kelajagi; shuningdek, huquqiy tajribansi tushuniladi. Shu bilan birga, bu erda umumiy madaniyat, hayotiy tajriba, kasbning o'ziga xos xususiyatlari, muhit muhim rol o'ynaydi⁹.

Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar ham yuridik psixologiyaning elementlari

⁹ Sokolov N. Ya. Advokatlarning professional ongi. M., 1988 yil.

hisoblanadi.

Kasbiy bilim – bu ma’lum bir sohada mutaxassis tomonidan o’zlashtirilgan va qo’llaniladigan kasbiy tushunchalar tizimi.

Ko‘nikma – ma’lum murakkab xarakterlarning takrorlanishi, shakllanishi jarayonida avtomatlashtirilgan, mashqlar natijasida xatosiz takrorlanadigan bilimlarni qo’llash, amallarni bajarish qobiliyati.

Malaka - bu ilgari olingan bilim va ko‘nikmalar asosida shakllangan muayyan faoliyat yoki harakatlarni qaytadan boshqa sharoitda bajarish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishdir yoki "sub'ektning mavjud bilimlari tomonidan harakatlarni maqsadga muvofiq ravishda tartibga solish uchun zarur bo‘lgan aqliy va amaliy harakatlarning murakkab tizimiga ega bo‘lishi"dir.

Surishtiruvchi va tergovchining huquqiy psixologiyasi strukturasi voqelikni idrok etish darajasi, shaxsning xotirasi, diqqati, qobiliyati, zehni, xarakteri va boshqa psixofiziologik xususiyatlariga e’tiborni qaratish kabi psixologik fazilatlar o‘rin tutadi. Shunday qilib, tergovchining xarakteri ma’lum bir shaxsning eng barqaror, muvozanatli, muhim tomonlarini birlashtirgan jamoaviy xususiyatdir.

Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Jnoyat-protsessal kodeksi. Toshkent 2023y.
2. A.N.Farobiy – Fozil odamlar shahri // O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashiryoti// Toshkent 2004 y.
3. X.T.Odilqoriev // Davlat va huquq nazariyasi // darslik: Adolat-2021 yil 269-bet
4. Kozhevnikov I.N. Jinoyatlarni tergov qilish. M 1997. 4-bet
5. Sokolov N. Ya. Advokatlarning professional ongi. M., 1988 yil.
6. Voplsiko N. N. - Tergovchining huquqiy ongi va yuridik amaliyot. // Tergovchining kasbiy fazilatlarini shakllantirish. Volgograd, 1985. 21-bet.
7. B.N.Sirliev, Sh.A.Sottiev, Sh.T.Ikramov – Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi // darslik: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi -2021-yil.